KIRUVCHI TURIZMNI RAG‘BATLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA TAHLIL

Xasanova Sofiya Komoliddinovna
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
stajyor o‘qituvchisi
sofiyakhasanova777@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida kiruvchi turizmni rag‘batlantirishning asosiy iqtisodiy mexanizmlari — vizani soddalashtirish, xavfsiz turizm muhitini ta’minlash, moliyaviy-soliq imtiyozlari va tabiiy-madaniy resurs salohiyatidan foydalanish tizimli ravishda yoritilgan. Davlatning turizm sohasidagi roli bo‘yicha xorij va mahalliy olimlarning yondashuvlari tahlil qilingan, shuningdek me’yoriy-huquqiy hujjatlar (PF-87, PQ-348) va xalqaro reytinglar asosida kiruvchi sayyohlar oqimining 2023–2026 yillardagi dinamikasi ko‘rib chiqilgan. Har bir mexanizmning amaldagi ko‘rinishi, me’yoriy asosi va kutilayotgan iqtisodiy ta’siri alohida jadvallarda tizimlashtirilgan. Ushbu mexanizmlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: kiruvchi turizm, iqtisodiy mexanizmlar, vizani soddalashtirish, xavfsiz turizm, moliyaviy imtiyozlar, turizm resurslari, O‘zbekiston.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekiston kiruvchi turizm oqimining jahon miqyosida eng jadal o‘sayotgan yo‘nalishlaridan biriga aylandi. 2023-yilda mamlakatga 6,6 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 10 milliondan oshdi, 2025-yilda esa 11,7 million nafarni tashkil etdi; 2026-yilning yanvar–iyul oylarida esa 7,7 million xorijiy sayyoh qayd etilib, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 foizga ko‘pdir[1]. Bunday jadal o‘sish tasodifiy emas, balki davlat tomonidan izchil amalga oshirilayotgan bir qator iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning yig‘indisi natijasidir. Muammoning dolzarbligi shundaki, ushbu mexanizmlarning har biri alohida-alohida hujjatlashtirilgan bo‘lsa-da, ularni yagona tizim sifatida ko‘rib chiqib, har birining kiruvchi turizm oqimiga qo‘shgan hissasini ilmiy jihatdan tahlil qiluvchi ishlar hali yetarli emas. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistonda kiruvchi turizmni rag‘batlantirishning asosiy iqtisodiy mexanizmlarini aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini ilmiy asoslashdan iborat.

Adabiyotlar sharhi. Davlatning turizm sohasidagi roli bo‘yicha K.L. Jenkins va B.M. Genri (1982) davlatning turizmga aralashuvi xususiy sektor imkoniyatlari yetarli bo‘lmagan sharoitda obyektiv zaruriyat ekanligini asoslab bergan[2]. K.M. Xoll (2005) davlatning turizmdagi funksiyalarini yettita yo‘nalishga — jumladan, tartibga solish va rag‘batlantirishga — ajratib ko‘rsatgan[3]. B. Bremvell (2011) esa davlat boshqaruvi (governance)ning barqaror turizmni rivojlantirishdagi muvofiqlashtiruvchi rolini alohida ta‘kidlagan[4]. Mahalliy adabiyotda B.Sh. Safarov milliy va mintaqaviy turizm bozorini

[1] “7,7 million sayyoh va 3,9 milliard dollar eksport: O‘zbekistonda turizm jadal rivojlanishda davom etmoqda” // Aniq.uz, 2026. Manba: https://aniq.uz/yangiliklar/7-7-million-sayyoh-va-3-9-milliard-dollar-eksport-uzbekistonda-turizm-jadal-rivojlanishda-davom-etmoqda

[2] Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521

[3] Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005

[4] Bramwell B. Governance, the state and sustainable tourism: a political economy approach // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 459–477

iqtisodiy tartibga solish mexanizmlarini tadqiq qilgan bo‘lsa[5], I.S. Tuxliyev va hammualliflari turizmni davlat darajasida rejalashtirish metodologiyasini ishlab chiqqan[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda mavzuga oid me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni mazmuniy tahlil qilish, xalqaro reytinglar (Global Peace Index) va Milliy statistika qo‘mitasi ma‘lumotlarini qiyosiy-statistik tahlil qilish, davlatning turli mexanizmlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beruvchi tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rasmiy ma‘lumotlari, Prezidentning 2025-yil 15-maydagi PF-87-son va 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son farmonlari, Institute for Economics & Peace tomonidan e’lon qilingan Global Peace Index 2026 hisoboti hamda milliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.

Natijalar va tahlil. Tahlil natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda kiruvchi turizmni rag‘batlantirish to‘rtta asosiy mexanizm orqali amalga oshirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Kiruvchi turizmni rag‘batlantirishning asosiy iqtisodiy mexanizmlari[7].

Mexanizm	Amaliy ifodasi	Me‘yoriy-huquqiy asos	Kutilgan iqtisodiy ta‘sir
Vizani soddalashtirish (institutsional yengillik)	93 davlat fuqarosi uchun vizasiz kirish rejimi (8 tasi cheklanmagan muddatda, qolganlari 30–60 kun)	Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-noyabrdagi 408-son qarori (keyingi o‘zgartirishlar bilan)	Xorijiy sayyoh uchun mamlakatga kirish to‘siqlarini bevosita kamaytiradi
Xavfsiz turizm muhiti	Global Peace Index 2026da 163 davlat orasida 37-o‘rin (o‘tgan yilga nisbatan 10 pog‘ona yuqori), Markaziy Osiyoda 1-o‘rin	Institute for Economics & Peace, GPI 2026 hisoboti	Sayyohning xavfsizlik nuqtai nazaridan mamlakatni tanlash ehtimolini oshiradi
Moliyaviy-soliq imtiyozlari	Bassleyn qurish xarajatlarining 50% gacha (100 mln so‘mgacha, dastlabki 100 obyekt uchun), modulli mehmonxonalarga subsidiya, apart-otel va kapsula uylar uchun esa hududiy rivojlantirish rejasi	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni	Xususiy investorlarni joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirishga rag‘batlantiradi
Tabiiy-madaniy resurs salohiyati	Tarixiy-madaniy (YUNESKO obyektlari), ziyorat, ekologik-tog‘, gastronomik va boshqa	Mualliflik tahlili	Turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish orqali turli

[5] Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016

[6] Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish: darslik. – Samarqand: SamISI, 2010

[7] O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Mexanizm	Amaliy ifodasi	Me‘yoriy-huquqiy asos	Kutilgan iqtisodiy ta‘sir
	turizm turlari uchun rang-barang resurs bazasi		segmentdagi sayyohlarni jalb qiladi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlari 2026-yil holatiga ko‘ra, 93 ta davlat fuqarosi O‘zbekistonga vizasiz kirish huquqiga ega, shundan 8 tasi uchun bu rejim muddatsiz amal qiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, 2026-yil davomida yana bir qator davlatlar (jumladan, AQSH, Saudiya Arabistoni, Iordaniya) ro‘yxatga qo‘shildi, bu esa siyosatning izchil kengayib borayotganini ko‘rsatadi. Vizani soddalashtirish sayyohning mamlakatga kirish xarajati (vaqt va moliyaviy) ni kamaytirish orqali turistik talabni bevosita rag‘batlantiruvchi eng arzon institutsional mexanizm hisoblanadi.

Institute for Economics & Peace tomonidan e’lon qilingan Global Peace Index 2026 hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 163 davlat orasida 37-o‘rinni egallab, o‘tgan yilga nisbatan 10 pog‘onaga ko‘tarildi hamda Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi, ilgari yetakchi bo‘lgan Qozog‘istonni ortda qoldirdi (2-jadval). Xavfsizlik omili turistik iqtisodiyotda narx yoki infratuzilmadan ko‘ra ko‘pincha ustuvor ahamiyat kasb etadi, chunki u sayyohning shaxsiy xavfsizligiga bevosita bog‘liq bo‘lib, salbiy holatda butun mintaqaviy imijga zarar yetkazishi mumkin.

2-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarining Global Peace Index 2026dagi solishtirma holati[8].

Davlat	Global Peace Index 2026dagi holati
O‘zbekiston	37-o‘rin (163 davlat ichida) — mintaqada 1-o‘rin
Qozog‘iston	2025-yilda mintaqa yetakchisi bo‘lgan, 2026-yilda O‘zbekistondan orqada qoldi
Boshqa MDH davlatlari	Faqat Boltiqbo‘yi davlatlari (Latviya, Litva, Estoniya) O‘zbekistondan yuqori ko‘rsatkichga ega

Prezidentning 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni bilan joylashtirish infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan aniq moliyaviy mexanizmlar joriy etildi: xususan, mehmonxona va turizm obyektlari hududida zamonaviy suzish havzalari qurish xarajatlarining 50 foizigacha (100 million so‘mdan oshmagan qismi) dastlabki 100 ta obyekt uchun davlat tomonidan qoplab beriladi, shuningdek turizm salohiyati yuqori hududlarda apart-otel, kapsula uy kabi zamonaviy joylashtirish vositalarini tashkil etish rag‘batlantiriladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan turistik startaplarga subsidiyalar va ekologik sertifikatlash xarajatlarini qoplash mexanizmlari amal qiladi. Bu choralar joylashtirish vositalari sifatini oshirish orqali sayyohning umumiy tajribasiga bevosita ta‘sir qiladi.

O‘zbekiston tarixiy-madaniy (YUNESKO obyektlari), ziyorat, ekologik-tog‘, gastronomik va boshqa deyarli barcha UNWTO tomonidan tan olingan turizm turlari uchun resurs bazasiga ega. Biroq resurslarning mavjudligi o‘z-o‘zidan kiruvchi oqimni ta‘minlamaydi. Quyida keltirilgan statistik dinamika (1-rasm) aynan yuqoridagi uchta institutsional-moliyaviy mexanizm faollashgan davrga to‘g‘ri kelishi, resurs salohiyatining faqat institutsional qo‘llab-quvvatlov bilan birga real iqtisodiy natijaga aylanishini ko‘rsatadi.

[8] Muallif ishlanmasi. Institute for Economics & Peace, Global Peace Index 2026 hisoboti asosida.



1-rasm. O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar dinamikasi (2023–2026)[9].

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, kiruvchi turizm oqimining 2023–2025-yillardagi deyarli ikki baravar o‘sishi (6,6 dan 11,7 million nafargacha) aynan shu davrda vizani soddalashtirish, xavfsizlikni mustahkamlash va moliyaviy rag‘batlantirish choralarining bir vaqtda kuchaytirilishi bilan mos keladi. Bu Jenkins va Genri hamda Bremvell tomonidan asoslab berilgan — davlatning turizmga faol aralashuvi, ayniqsa rivojlanayotgan bozorlar uchun, xususiy sektor imkoniyatlaridan tashqari qo‘shimcha institutsional ta‘minotni talab qilishi haqidagi qoidaga to‘liq mos tushadi. Shu bilan birga, 2026-yil yanvar–iyul oylaridagi 7,7 million ko‘rsatkichning yillik 11,7 milliondan past bo‘lishi yil oxirigacha muddat borligi bilan izohlanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda kiruvchi turizmning jadal rivojlanishi to‘rtta o‘zaro bog‘liq mexanizm institutsional yengillik (viza), xavfsizlik, moliyaviy imtiyoz va resurs salohiyatining muvofiqlashtirilgan ta‘siri natijasida yuzaga kelgan. Ushbu mexanizmlarni yanada takomillashtirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- vizani soddalashtirish siyosatini davom ettirish bilan bir qatorda, uning kiruvchi turizm statistikasiga ta‘sirini mamlakatlar kesimida miqdoriy baholab boruvchi monitoring tizimini joriy etish;
- Global Peace Indexdagi yuqori ko‘rsatkichni xalqaro turizm marketingida faol foydalanish, xususan xavfsizlikka sezgir bozorlarda (oilaviy turizm, uzoq muddatli sayohatlar) targ‘ibot ishlarini kuchaytirish;
- PF-87-son Farmonda nazarda tutilgan moliyaviy imtiyozlarning amaliy natijalarini (joylashtirish vositalari sifati o‘zgarishi) muntazam baholab borish; to‘rtinchidan, mavsumiylik muammosini bartaraf etish uchun yil davomida turli mavsumlarga mos turizm mahsulotlarini (qishki tog‘ turizmi, ilmiy turizm va boshqalar) rivojlantirish. Aynan shu kompleks yondashuv orqali O‘zbekistonning boy resurs salohiyati barqaror kiruvchi turizm oqimiga to‘liq aylanishi mumkin.

[9] https://aniq.uz/yangiliklar/7-7-million-sayyoh-va-3-9-milliard-dollar-eksport-uzbekistonda-turizm-jadal-rivojlanishda-davom-etmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “7,7 million sayyoh va 3,9 milliard dollar eksport: O‘zbekistonda turizm jadal rivojlanishda davom etmoqda” // Aniq.uz, 2026. Manba: https://aniq.uz/yangiliklar/7-7-million-sayyoh-va-3-9-milliard-dollar-eksport-uzbekistonda-turizm-jadal-rivojlanishda-davom-etmoqda
2. Jenkins C.L., Henry B.M. Government involvement in tourism in developing countries // Annals of Tourism Research. – 1982. – Vol. 9, No. 4. – P. 499–521.
3. Hall C.M. Tourism: Rethinking the Social Science of Mobility. – Harlow: Pearson Education, 2005.
4. Bramwell B. Governance, the state and sustainable tourism: a political economy approach // Journal of Sustainable Tourism. – 2011. – Vol. 19, No. 4–5. – P. 459–477.
5. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish: darslik. – Samarqand: SamISI, 2010.
7. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, rasmiy sayt — “O‘zbekiston Respublikasi vizasi” bo‘limi. Manba: https://gov.uz/en/mfa/activity_page/o-zbekiston-respublikasi-vizasi
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-87-son Farmoni. Manba: https://lex.uz/docs/7531559
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi PQ-348-son qarori. Manba: https://lex.uz/docs/7851788
10. “O‘zbekiston tinchliksevar davlatlar reytingida 37-o‘rinni egalladi” // Anhor.uz, 2026-yil 15-iyun (Institute for Economics & Peace, Global Peace Index 2026 hisoboti asosida). Manba: https://anhor.uz/uz/news/zbekiston-tinchliksevar-davlatlar-rejtingida-37-rinni-jegalladi/